



## INVESTITSIYA LOYIHALARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH YO'LLARI

To'xtaboyev Sherzod Ilxomovich

*Oriental universiteti magistranti oriental88@mail.ru +998988 143-77-44*

### KIRISH

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari tezlashib borayotgan hozirgi davrda yirik investitsiya kompaniyalari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga o'z mablag'larini rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ikki barobar ko'proq yo'naltirmoqda. Shuningdek, jahonda iqtisodiyotni integratsiyalashuvi jarayonida mamlakat barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda faol investitsiya siyosatini olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, 2022-yilda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 12 foizga kamayib, 1,3 trillion dollarni tashkil etdi, bu pasayish asosan rivojlangan mamlakatlarda sezildi, bunda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 37 foizga kamayib, 378 milliard dollarni tashkil qilgan. Ammo rivojlanayotgan mamlakatlarga investitsiyalar oqimi 4 foizga o'sgan<sup>2</sup>. Shu boisdan ham, xalqaro raqobat mamlakatlarni investitsiya resurslaridan samarali foydalanishga va investitsiya resurslarining samarasini oshirishga undamoqda.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatdoshligini kuchaytirishda investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida tanlangan. Global pandemiya sharoitida mamlakatda "asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi 2020-yilda 4,4 foizga kamaydi, 2021-yilda esa 5,1 foizga oshib, 239,5 trln. so'mni tashkil etdi"<sup>3</sup>. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham iqtisodiyotga investitsiyalarni faol jalb qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Unga ko'ra "mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish sharoitida kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish"<sup>4</sup> vazifasi alohida belgilab berildi.

Bugungi kunda iqtisodiyotning umumiy ko'rsatkichlari va istiqbollari, shuningdek, makroiqtisodiy omillar investitsiya loyihalarining samaradorligiga qanday ta'sir qilishini iqtisodiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu iqtisodiyot tarmoqlari umumiy o'sish va rivojlanish jarayoniga qanday hissa qo'shishi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga qanday ta'sir qilishini tushunishni o'z ichiga oladi. "Investitsiya faoliyati samaradorligini iqtisodiy baholash mamlakatimiz

---

<sup>2</sup> <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>

<sup>3</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>.


iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun mavjud korxonalarining investitsiya obyektlarini topish va aniqlashda muhim o‘rin tutadi”.

Asosiy qism. Investitsiyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda qaysi darajadagi investitsiya bo‘lmasin albatta uzoqni ko‘zlab ish tutadi, ya‘ni undan olinadigan daromad bugun emas, balki kelgusida bo‘lishini mo‘ljallaydi.

Shu tufayli investitsiyadan foyda olish yoki birorta natijaga erishish uchun uni oldindan chuqur o‘rganish va tahlil qilishga to‘g‘ri keladi. Ana shu investitsiyadan foyda olishni ko‘zlab qilingan tahlil “Loyiha tahlili” bo‘lib hisoblanadi. Demak, loyiha tahlilida bugungi qilingan xarajatlarning (investitsiyaning) kelgusi davrda keltiradigan foydasi (daromadi) o‘rganiladi. Buni investitsiya loyihasi orqali aniqlash mumkin.

Investitsiya loyihasi – bu foyda uchun yo‘naltirilgan investitsiyalardan asosli ravishda foydalanish strategiyasi tushuniladi. Ana shu jarayon loyiha tahlilida atroflicha o‘rganilishi, iqtisodiy jihatdan asoslanishi lozim.

Umuman olganda, investitsiya loyihasi keng ma‘noda quyidagi jarayonlarni aks ettiradi: (1- rasm)



1- rasm. Investitsiya loyihasini amalga oshirish bosqichlari<sup>5</sup>

Shu jarayonlarning hammasi loyiha tahlilida o‘rganilishi lozim. Chunki har qanday loyihani amalga oshirish uchun uning moddiy ta‘minoti - pul mablag‘i, moddiy va mehnat resurslari bo‘lishi lozim. Ularning har biridan qancha kerakligini asoslash ham loyiha tahlilining muhim vazifalaridan biridir.

Shunday qilib, loyiha tahlili bozor munosabatlari shakllanayotgan jamiyat uchun shunchaki fan sifatida emas, balki obyektiv zarurligi bilan o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Shuningdek, loyiha tahlilining boshqa tahlillar orasidagi o‘rni, uning o‘zga jihatlarini ishlab chiqarish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

<sup>5</sup>Muallif ishlanmasi.



Investitsiya loyihasini ishlab chiqish moliyaviy tahlil, biznesni loyihalash va prognozlash sohasida ko'p darajali fundamental bazaga ega bo'lgan tajribali maslahatchini jalb qilishni talab qiladi. Har qanday investitsiya loyihalari turli darajadagi risklar bilan bog'liqligi uchun investorning maqsadi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning eng maqbul yo'lini aniqlashdir.

Umuman olganda, investitsiya loyihasini ishlab chiqish quyidagi jarayonlardan iborat:

1-jadval

Investitsiya loyihasini ishlab chiqish ketma-ketligi<sup>6</sup>

| №   | Loyihani ishlab chiqish bosqichlari                                 |
|-----|---|
| 1.  | Marketing tadqiqotlari, bozor tahlili va loyihaga talabni o'rganish |
| 2.  | Loyiha maqsadlarini aniqlash  |
| 3.  | Qaytarilish muddatlarini aniqlash                                   |
| 4.  | Loyihani iqtisodiy va huquqiy baholash                              |
| 5.  | Kelajakdagi mahsulotni ishlab chiqarish va sotish rejasini tuzish   |
| 6.  | Tegishli soliq rejimini tanlash                                     |
| 7.  | Texnologik asoslash va operatsion xarajatlarni hisoblash            |
| 8.  | Biznes rejani ishlab chiqish  |
| 9.  | Texnik-iqtisodiy asoslashni ishlab chiqish                          |
| 10. | Moliyaviy modellashtirish va rejalashtirish                         |
| 11. | Ishlab chiqarish hajmini aniqlash                                   |
| 12. | Putratchilar va loyiha ishtirokchilari ro'yxatini tayyorlash        |
| 13. | Ishlab chiqarish yoki qurilish xarajatlarini asoslash               |
| 14. | Investitsiya loyihasi xavfini baholash                              |
| 15. | Moliyalashtirish tartibini aniqlash                                 |

Investitsiya loyihasi uzoq muddatli istiqbol hisoblanadi va bir martalik foyda bilan cheklanmasligi kerak. Investitsiya loyihasini amalga oshirishning asosiy bosqichi investitsiya oldi fazasi hisoblanadi. Bu investitsiya loyihasi bo'yicha dastlabki izlanishlardan to uni amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilingungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Investitsion loyiha samaradorligining har xil turlari mavjud. Moliyaviy samaradorlik loyihadan tushgan xarajatlar va daromadlar nisbatini baholaydi. U ichki daromad darajasi (IRR), o'zini o'zi qoplash muddati, sof joriy qiymat (NPV) va boshqalar kabi ko'rsatkichlar bilan ifodalanishi mumkin. Iqtisodiy samaradorlik: loyihaning butun iqtisodiyotga ta'sirini baholaydi. U nafaqat moliyaviy natijalarni, balki loyihaning ijtimoiy va ekologik oqibatlarini ham hisobga oladi. Ijtimoiy samaradorlik: loyihaning odamlarning hayot sifati, ijtimoiy adolat, bandlik va boshqalarga ta'sirini baholaydi. Bu nafaqat iqtisodiy natijalar, balki ijtimoiy ehtiyojlarni ham hisobga oladi. Ekologik samaradorlik: loyihaning atrof-muhit va tabiiy resurslarga ta'sirini baholaydi. Bu loyihaning ekologik oqibatlari, masalan, havo, suv, tuproq ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi va boshqalarni hisobga oladi. Texnologik samaradorlik: loyihada texnologiya va innovatsiyalardan foydalanish samaradorligini

<sup>6</sup>Muallif ishlanmasi



baholaydi. U loyihaning avtomatlashtirish, jarayonlarni takomillashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlaridagi imkoniyatlarini hisobga oladi.

Xulosa va takliflar. Loyiha iqtisodiy samaradorligini baholash – bu loyihaning samaradorligi loyihani hayotiylik davridan uning tugashigacha bo'lgan davr oralig'ini o'z ichiga olgan davr sifatida baholashdir. Shu jumladan, kelajakdagi sheriklar va investorlar uchun investitsion jozibadorligini baholash imkonini beradigan faoliyatdir.

Loyihaning investitsiya muhiti jozibadorligini baholash uchun korxonalar rahbariyati uning marketing tarkibiy qismining yetarliligini tushunishi zarur. Hisob-kitoblarni tayyorlashda moliyachilarning aksariyati amalga oshirish rejaları bo'yicha kutilayotgan tadqiqotlar natijasida olingan marketing ma'lumotlariga emas, balki kelajakdagi ishlab chiqarishning texnologik imkoniyatlariga asoslanadi. Bunday hisobotni olgandan so'ng, korxonalar rahbariyati loyihaning marketing strategiyasini aniq tushunishi maqsadga muvofiq. Jahon tiklanish va taraqqiyot bankining metodologiyasiga ko'ra, hisob-kitoblarda vaqt omilini hisobga olish usuli bo'yicha investitsiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning zamonaviy usullari orasida ikkita guruhni ajratish mumkin: statik va dinamik.

Dinamik usullarning o'ziga xos xususiyati investitsiya loyihasi bilan bog'liq turli xil natijalar va xarajatlarni diskontlash tartibidan foydalanishdir. Turli xil pul oqimlarini diskontlash tartibi chegirma stavkasi yordamida amalga oshiriladi, uning to'g'ri asoslanishi hisob-kitoblar natijalariga bevosita ta'sir qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi bir necha omillarni hisobga olgan holda faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning rentabelligini ta'minlashdir. Birinchidan, talab qilinadigan rentabellik darajasi hech bo'lmaganda pulning inflyatsion qadrsizlanishini qoplashi kerak. Ikkinchidan, u investorlarga mumkin bo'lgan maksimal daromadni kafolatlashi hamda biznesni yuritishning maqsadini asoslashi zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020 y., 10.06.2022 y., 06/22/152/0507-son.

2. Maxmudov S.B. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning noan'anaviy usullarini takomillashtirish. // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №5, oktabr, 2020-yil.

3. To'xtaxonov I.A. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarini rivojlantirishning nazariy asoslari. // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. № 4, avgust, 2020-yil.

4. Xomitov K.Z., Xayrullayev I.N. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish. // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. № 2, aprel, 2019-yil.

5. Haydarov O.A. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarishning zamonaviy holati. // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. № 6, avgust, 2019-yil.